



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 3 - fevral

109-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Qiziriq tumani “Zartepa” mahallasi hududidan maktabgacha ta’lim tashkiloti  
binosi qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qaroriga asosan, Qiziriq tumani hokimligining 2023-yil 16-iyundagi 01-03/331-sonli xatini hamda “YERELEKTRON” AATga A1722215024/1 ID raqami bilan kiritilgan yer uchastkasiga tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan xulosalarni inobatga olib,

**Q A R O R    Q I L A M A N:**

1. Qiziriq tumani “Zartepa” mahallasi hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligi xaritasining 2237q-konturidan 0,52 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni yangi zamonaviy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti binosi qurilishi uchun tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abdiraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (A.Abduraximov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarining loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz)da e’lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Amirov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyat hokimi**



**U.B.Qosimov**